O‘ZBEKISTONNING G‘ARBIY VA JANUBI-G‘ARBIY VOHALARIDA TARQALGAN CATOCALINI TRIBASI AYRIM TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekchanov X.O‘ *– UrDPI Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, professor, b.f.d.*

Yavkachev D.A *– UrDPI Tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Yadgarova N.S *– UrDU Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Abdullayeva M.R *– Xorazm Ma’mun akademiyasi tayanch-doktoranti*

Bugungi kunda dunyo miqyosida evolyutsiya mahsuli hisoblangan bioxilma-xillikni saqlash, insoniyatning biologik omil sifatida tabiatdagi mavjud ekotizimlarga ta’sirini va uning oqibatlarini o‘rganish global ekologik muammo hisoblanadi. Antropogen ekosistemalarning yaratilishi, urbanizatsiya jarayonlarning kuchayishi o‘z navbatida bioxilma-xillikni keskin kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, tabiiy hududlarda tarqalgan tasmaqanotlilar — Catocalini tribasi tangachaqanotlilarining faunasi va biologik-ekologik xususiyatlarini o‘rganish, faunaning shakllanishida mavjud tabiiy sharoitlar, tangachaqanotlilarning ozuqa o‘simliklar bilan trofik aloqalarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Catocalini tribasining *Catocala* avlodiga mansub tangachaqanotlilarning dunyo bo‘yicha 268 turi aniqlangan bo‘lib, shulardan 103 turi Nearktikada, 165 turi Palearktikada tarqalgan, bular orasida Golarktik turlar uchramaydi Ushbu avlodning bir nechta turlari Neotropika va Hindo-Malayya biogeografik viloyatlarida qayd qilingan (N.T.Homziak et all,2023). O‘zbekistonda tangachaqanotlilarni o‘rganish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan, g‘arbiy va janubi-g‘arbiy

O‘zbekistonning Catocalini tribasi tangachanotlilari haqida to‘liq ma‘lumot bermaydi. Shulardan kelib chiqqan holda biz o‘z oldimizga respublikamizning g’arbiy va janubi-g’arbiy vohalarida tarqalgan Catocalini tribasi turlarining zamonaviy sistematik va faunistik holatini tahlil qilish, biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqotlar 2015-2024 yillar davomida Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarining turli tabiiy maskanlarida olib borildi. Kapalaklarni ushlashda fenologik kuzatishlar va umume’tirof etilgan entomologik metodlardan foydalanildi. Tungi tadqiqotlarda elektrik generatorlar va 25 V li *Camelion* lampali *Naturaliste 150* entomologik moslamasi qo‘llanildi. Ushlangan hasharotlarni sistematik jihatdan tahlil qilishda Gofman-Xolodkovskiy (1897), K. Lampert (1913), Y. Tykach (1959), Klyuchko (1974, 1978), M. Koch (1991), Poltavskiy (2010), B.Goater, R.Ronkay, M.Fibiger (2003), A.Matov (2017; 2020), V.Kononenko (2005; 2010; 2016), S. Toropov va boshqa olimlarning atlas-aniqlagichlaridan foydalanildi.

Tadqiqotlar davomida Catocala aestimabilis Buxoro va Qashqadaryo vohalari uchun yangi tur sifatida qayd qilindi. Ushbu tur Janubi-Sharqiy Turkmaniston, Qizilqum sahrosi, Sintzyan (Takla-Makan), Qozog‘istonning Ili daryosi vodiysi, Janubi-G‘arbiy Mongoliyada tarqalgan.

Morfologiyasi: Imagolarining kattaligi qanotlarini yoyganida 60-65 mm ga yetadi.

Ko‘krak qismi och-qo‘ng‘ir yoki kulrang tusdagi tuklar bilan qoplangan; qorin qismi uzunchoq, biroz konussimon, och-sariq yoki kulrang-qo‘ng‘ir tusda bo‘ladi. Oldingi qanotlari och-qumrang yoki sariq-qo‘ng‘ir rangda bo‘lib, ustki tomondan jigarrang va kulrang tusli mayda g‘ubor bilan qoplangan. Antemedial hoshiyasi to‘lqinsimon, uzuq-yuluq, to‘q-qo‘ng‘ir tusli; postmedial hoshiyasi qanotning markazida keskin tarzda tishsimon o‘simta –

naqsh hosil qilgan, xuddi shu qismda qanot pigmentatsiyasi kuchli; buyraksimon dog‘i cho‘ziq, ichki qismi to‘qroq, tashqi tomoni esa ochroq tusli, uni qora hoshiya o‘rab olgan; yumaloq dog‘i biroz ovalsimon shaklda cho‘zilgan. Eng chekka hoshiyasi kalta, bir xil tusda tovlanadi. Orqa qanotlari to‘q sariq yoki och-sarg‘ish-jigarrang; eng chekka qismi qoramtir hoshiya bilan o‘ralgan.

Bioekologiyasi. Asosan tog‘larda va to‘qaylada tarqalgan. Yillik generatsiyasi bo’yicha monovoltin tur hisoblanadi. Kapalaklari iyun-iyul oylarida kunduzi va tungi davrda uchishadi. Qurtlari *Glycyrrhiza glabra* da rivojlanadi. Tuxum bosqichida qishlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. В.Б. Голуб, М.Н Цуриков, А.А. Прокин Коллекции насекомых: сбор, обработка и хранение материала. –М.: Товарищество научных изданий КМК, 2013. – 339 с

2. З. Раджабова, А.Ю. Матов. Аннотированный каталог совок (Lepidoptera. Noctuoidea) Таджикистана. – Худжанд: Хуросон, 2020.- 256 стр

3. Goater B., Fibiger M., Ronkay L. Noctuidae Europaeae. Volume 10. Catocalinae and Plusiinae. Denmark: Entomological press, Sorø, 2003 y. – 423 p.

4. Toropov, S. A., Milko, D. A., Zhdanko, A. B., & Evdoshenko, S. I. (2023). *Autumn Silkworm, Emperor, Hawk, Tiger, and Underwing Moths (Lepidoptera: Lemoniidae, Saturniidae, Sphingidae, Arctiini, and Catocalini) of Alai, Tien Shan and South-eastern Turan* Bishkek,: Privately published, 2023. – 268 p

5. Korb S., Matov A., Pliushch I., Klyuchko Z., Poltavsky A. The Noctuoid moths of Kyrgyzstan. KMK Scientific Press Ltd. Moscow, 2016.– 213 p.